

## GO'ZAL BEGIM SHE'RLARI TAHLILI

**Feruzabonu MA'RUFALIYEVA,**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878215>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyotshunoslik metodologiyasining formal metodi orqali zamonaviy she'riyat vakillaridan biri Go'zal Begim ijodi haqida fikr yuritilgan. Uning "Sukunat jarangi" she'riy to'plamidan o'rin olgan "Yaltiroq tasvir" hamda "Iroda taxlamlari" she'rlari formal metod asosida tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** She'riyat, formal, formalizm, shakl, mazmun, metod.

**Annotatsion:** This article examines the work of one of the representatives of modern poetry, Gozal Begim, using the formal method of literary criticism methodology. Her poems "Yaltiroq tasvir" and "Iroda takhlami" from the poetry collection "Sukunat shangi" are analyzed using the formal method.

**Key words:** Poetry, formal, formalism, form, content, method.

**Аннотация:** В этой статье обсуждается работа Гозала Бегима, одного из представителей современной поэзии, с помощью формального метода методологии литературоведения. На основе формального метода были проанализированы его стихи «Блестящий образ» и «Образцы воли» из сборника стихов «Тишина».

**Ключевое слова:** Поэзия, формальность, формализм, форма, содержание, метод.

She'riyat insonlar qalbiga mehr-muhabbat, go'zallik, ezgu fazilat va emotsionallik bag'ishlash bilan birga borliqning har bir ne'matidan zavq olish imkoniyatini ham yaratadi. Sevimli shoiramiz Zulfiya aytganidek: "She'r — tuyg'ular, hayotdan olingan taassurot va tafakkurlar mevasi!.."<sup>1</sup>. Insonda hayotning har bir voqea-hodisasidan xulosa chiqarish va taassurot olish qobiliyati bor ekan, undagi tafakkur ko'lami his-tuyg'u, kechinmalar bilan birgalikda shakllanib boradi.

Barmoq, aruz va erkin vaznda yozilgan she'rlarning shaklida qofiya, turoq, ritmik nutq bilan birgalikda aruz tizimidagi rukn, hijolar, ohang ham alohida shakl-mazmun bog'liqligini ifodalab kelgan. Erkin vaznda yaratildan ijod namunalarida esa she'riy unsurlarning bo'lishiga qaramay, ma'lum ma'no va mazmunni yuzaga keltiradi.

Badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonida metodologik yondashuv asarning g'oyasida ijtimoiy, psixologik, germenevtik, formalistik(shakl) kabi metodlarning qay birining ustuvorligiga asoslanadi. Biror asarning metodologik asosini belgilashda asarda ifodalangan g'oyaviy maqsadni yoritishda qaysi yondashuv qo'l kelsa ushbu metoddan foshdalanib tahlil qilish zaruratga aylanadi. Lekin badiiy asar

<sup>1</sup> <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/yozuvchilar-adabiyot-togrisida/>

aynan biror bir metod doirasidagina tahlil qilinadi, degan fikr noto‘g‘ri. Tanqidchi asar tahlilida turli xil metodologik yondashuv asosida fikr yuritishi lozim.

Adabiyotshunoslikka oid kuzatishlarda formal metod asosida tahlil qilingan asarlar ham mavjud. Aslini olganda, formal metod qanday metod turi? Formal metod bu - asarlarga mazmun emas, balki asarning shakliga, poetikasiga, tiliga, uslubiga, so‘ziga diqqatini qaratish, demakdir. *“Adabiyotshunoslikdagi formal metod badiiy, shakliy kompozitsion unsurlarga eng muhim nazariy-estetik kategoriya sifatida qaraydi. Badiiy adabiyotning individual xususiyati shaklda o‘z ifodasini topadi, degan fikrni ilgari suradi”*<sup>2</sup>. Formal metodda badiiy asarning asosiy komponentlaridan shaklning bosh o‘ringa olib chiqilishi asar mazmuni mavjud emasligiga ishora qilmaydi. Ushbu metod turida forma(shakl) birlamchi bo‘lsa-da, mazmunning badiiy asardagi xususiyati saqlanib qoladi.

O‘zbek adabiyotida formalistik asarlar XX asrning 20-30 yillarida paydo bo‘la boshlagan bo‘lsada, istiqloq yillarida B.Ro‘zimuhammad, Faxriyor, I. Otamurod, Go‘zal Begim she‘rlari, O.Muxtor, Xayrullo, NabiJaloliddin, Asad Dilmurod, Arslon Ne‘mat, Abdug‘ani Abdiyev kabi adiblarning hikoya, qissa var omanlari shu xildagi izlanish samaralari sifatida xarakterlidir<sup>3</sup>.

O‘zbek adabiyotining formalistik yo‘nalishda ham ijod qilgan shoira Go‘zal Begim 1974 yil Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir tumanidagi O‘zbek qishlog‘ida tug‘ilgan. 1997 yilda esa Toshkent davlat pedagogika universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan. Hozirda Respublika radiosi Adabiyot muharririyatida ish faoliyatini olib bormoqda. Shoiraning ilk she‘riy to‘plami “Sukunat jaranglari” deb nomlangan. Ushbu to‘plamda qalb kechinmalaridan yo‘g‘rilgan, hayot haqiqatlarini ochib beruvchi ijod namunalari keltirilgan. Shoiraning ijodi bo‘yicha shoir Bahrom Ro‘zimuhammad quyidagicha fikr bildirgan: *“Shoira ruh kengliklariga o‘zicha sayr qiladi, nimalarnidir izlaydi, topmoqchi bo‘ladi. Bu intilishlar ajabtovur emas, bizga tanish, judayam tanish, ammo o‘sha tanishlik sezgisi idrokimizdan uzoqlarda jimirlaydi. Eng muhimi, shoira SO‘Zni aniq bir kayfiyatga monand tarzda ishlata bilgan, shuurimiz zavqu shavqini ta‘minlash darajasida qalam tebratgan”*<sup>4</sup>.

Shoira she‘rlarida tabiat tasviri orqali muallif ruhiyatini turli ranglar bilan chizadi. She‘rdagi poetik obrazlar va timsollarning asar shakl va mazmun xususiyatiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

<sup>2</sup> Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Filologlar uchun qo‘llanma. Toshkent. 2011. B.41.

<sup>3</sup> F.S.Safarov, M. N. O‘rinova. Badiiy matn tahlili. O‘quv-uslubiy majmua.-Buxoro. 2021. B.60.

<sup>4</sup> Go‘zal Begim. Sukunat jaranglari. She‘riy to‘plam.-Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1998. 1-bet.

Go‘zal Begimning aksariyat she‘rlari formal metod turdagi namunalar sirasiga kiradi. Shoiraning “Sukunat jaranglari” she‘riy to‘plamidan joy olgan “Yaltiroq tasvir” sarlavhasi ostidagi she‘r formalistik xususiyatlarni o‘z ichiga olgan.

*Tun bo‘yi  
tun bo‘yi-i yig‘ladim  
yog‘ib charchamagan yomg‘ir misoli  
ko‘zlarimga surtdim zaminni  
surtdim peshonamga  
yuraklarimga*

*ko‘zlarim so‘ylagan rivoyat  
yo‘qotib boradi shaklini  
ko‘ksim qafasini ochdim  
sovuqda yaxlatdim  
yuraklarima-a-ay  
tun bo‘yi  
osmonga  
chiqib yig‘ladim  
narvon yasab chiqdim  
qotib ulgurmagan  
suyaklarimdan<sup>5</sup>*

“Yaltiroq tasvir” she‘ri shaklan barmoq she‘r tizimiga xos bo‘lgan qofiya va turoq, bosh harflar tizimi, hattoki, punktuatsion ishoralarga ham ega emas. Tun tasviri shoiraning ruhiy kechinmalari bilan uyg‘unlashib ketgan. Bilamizki, “tun” barcha hissiy tuyg‘ular, inson o‘ylari va ichki xotiralar birlashadigan palla. Bir qarashda she‘rda forma(shakl) bor, lekin ma‘no mavjud emasdek tuyiladi. Agar she‘rni diqqat bilan tahlil qilsak, undagi so‘zlarning mazmuniy bog‘likligini sezamiz. Shuningdek, “tun”, “yomg‘ir”, “qafas”, “sovuq”, “suyak” kabi birliklar she‘rning shakl zinalarida izchillik bilan terilgan. Har bir qatorda bu so‘zlarning ketma-ket tarzda kelishi muallif ruhiyatini ochishga xizmat qilgan.

Misralarda keltirilgan “bo‘yi-i” hamda “yuraklarim-a-ay” kabi shakliy ko‘rinishlar birinchidan, she‘r tuzilishiga jimjimadorlik bag‘ishlaydi, ikkinchi tomondan esa qahramon ruhiyatining yanada ta‘kidli ifodalanishi aks etgandek, go‘yo. Punktuatsiyaviy belgilar ham badiiy asar o‘qilishida va ta‘sir etishida alohida o‘rin tutadi. Yuqorida tilga olingan lafziy san‘at namunalardan ayrimlarini misralar

<sup>5</sup> Go‘zal Begim. Sukunat jaranglari. She‘riy to‘plam.-Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1998. 11-bet.

orasida uchramiz. Masalan, badiiy adabiyotda “tarse” she’riy san’ati bor. Bu she’riy san’at birinchi hamda ikkinchi misralar o’rtasida takror keladigan so’zlar asosida yuzaga kelgan. Yuqoridagi she’rda ham birinchi qatordagi “tun bo’yi” leksemasi ikkinchi misrada ham takrorlangan. Bu orqali she’rning shakliy ko’rinishida tartibli va ohangdorlik tizimga erishilgan.

Formal metodi asosida yaratilgan asarlar jumboqliligi bilan ajralib turadi. Chunki bu asarlarda shakl birlamchi, lekin mazmun ifodasida xilma-xillikka ega bo’ladi. Go’zal Begim she’rlarida ham mazmun o’ziga xos tarzda namoyon bo’ladi. Bir-biriga qorishiq ifodalar shakl va mazmun uyg’un ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Shoiraning “Iroda taxlamlari” she’ri ham formal ifodaning yorqin namunalaridan biridir. Go’zal Begim tabiat tasviri bilan inson ruhiyatini uyg’unlikda tasvirlashga harakat qiladi. Har bir qatorda kelayotgan ifodalar voqealarni harakatga keltiradi:

*Yomg’ir yoqqach  
ko’kargani kabi gul-giyoh  
oziqlanganiday jami hasharot  
ko’ngil darvozasin chertdi  
tom*

*chi-*

*laa-*

*a-*

*r*

*“Jon o’lmasdur-  
tan foniy”*

*yo’naltiraman o’zimni  
miyamdagi majhul fikrga<sup>6</sup>*

E’tibor berganingizdedk, shoira tabiatning go’zal hodisalaridan biri yomg’irga ko’p murojaat qiladi. Yomg’ir betakror his-tuyg’u, orzu-umid va kechinmalarning marjon-marjon shodasi kabidir. She’rni bir marotaba o’qishda hech qanday voqelik yo’qdek ko’rinadi, lekin takroran o’qisak unda shakliy go’zallik va ohang mavjud ekanligiga guvoh bo’lamiz.

She’r misralaridagi “tomchilar” so’ziga nazar tashlaydigan bo’lsak, shakliy jihatdan har bir qatorda o’zining kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini ifodalash uchun harflar tizimi uzilgan. Yomg’ir tomchilarining erga tushishgacha bo’lgan jarayonida o’zining

<sup>6</sup> Go’zal Begim. Sukunat jaranglari. She’riy to’plam.-Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1998. 14-bet.

ohangdorligini yo'qotmaydi. Har bir tomchisida o'zini bor ekanligini ta'kidlab keladi. Shoir "tomchi"ning bu kabi ko'rinishi orqali she'rning shakli raqs harakatlari kabi o'ynoqiligini isbotlab bergan.

Ushbu she'rda ham tinish belgilaridan birortasiga duch kelmaymiz. Lekin she'rni o'qiganimizda to'xtam, pauzalar sekin-asta shakllanib boraveradi. Bu esa she'rning shakl va mazmun uzviy aloqadorligini tasvirlab beradi.

*O'limdan-da  
qo'rqinchliroq so'z qidiraman  
jumla axtaraman  
halovatimga zarba beruvchi  
miyamdanda burqsizotgan tutunda  
uchoqlarning izi qoladi  
yur panoh izlaymiz o'sha izlardan*

Formal metod san'atdagi tarbiyaning rolini, uning milliyligini, milliy an'alarini inkor etadi. Aslini olganda, she'r ham san'atning bir turidir. Shoir she'rida xat boshi, tinish belgilariga e'tibor bermaslik, qofiya va vaznda erkin bo'lish holatlariga duch kelamiz. Yuqoridagi she'r ritm, ohangdorligi qofiyaga ega bo'lgan she'r bilan solishtirilsa, albatta, qofiyasi mavjud ijod namunasi insonga estetik zavq va emotsionallik beradi. Ammo formal metod namunalari adabiyotshunoslik metodologiyasida o'ziga xos o'ringa ega bo'ladi. Go'zal Begim she'rining shakliy ko'rinishi ustun bo'lsa ham mazmun bilan aloqador ekanligi ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganimizda, Go'zal Begim she'rlari zamonaviy badiiy adabiyotimizda o'zining serjiloligi bilan ajralib turadi. Uning so'z qo'llashdagi o'ziga xos uslubi ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. Филологлар учун қўлланма. Тошкент. 2011
2. Ф.С.Сафаров, М. Н. О'ринова. Бадий матн таҳлили. Ўқув-услубий мажмуа.-Бухоро. 2021.
3. Гўзал Бегим. Сукунат жаранглари. Шеърлий тўплам.-Тошкент: "Ёзувчи" нашриёти, 1998.
4. З. Машарипова. Ифодали ўқиш практикуми. -Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2011.
5. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
6. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
7. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State

# “TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

- Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan,  
<https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
8. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar.  
[https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).
  9. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
  10. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA*. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
  11. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. *GOLDEN BRAIN. RAIN* ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б.  
<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>